



# MUSAVVIR

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti

ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-amaliy gazetasi

2026-YIL – O'ZBEKISTONDA "MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH" YILI

## Muhammad Yusuf tavalludining 72 yilligi munosabati bilan ijodiy asarlar ko'rgazmasi hamda adabiy-ma'rifiy tadbiri



Tadbir davomida yozuvchilar, shoirlar, soha vakillari, professor-o'qituvchilar, talabayoishlar hamda keng jamoatchilik vakillari ishtirok etib, uni institut rektori Omonulla Salixov kirish so'zi bilan ochib berdi. Shundan so'ng O'zbekiston Badiiy akademiyasi raisi Akmal Nuridinov, O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi raisining birinchi o'rinbosari Minhojiddin Mirzo, O'zbekiston madaniyat, sport va turizm xodimlari kasaba uyushmalari Respublika Kengashi raisi Otabek Musayev, O'zbekiston Respublikasi "Tasviriy oyina" ijodiy uyushmasi Boshqaruvi raisi Isfandiyor Latipov, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori Nodirbek Sayfullayev, Muhammad Yusuf nomidagi jamoat fondi raisasi, shoirning turmush o'rtog'i Nazira As-Salom hamda boshqa soha vakillari so'zga chiqib, shoir ijodining g'oyaviy-badiiy

xususiyatlari, undagi milliy qadriyatlar va vatanparvarlik ruhining bugungi yosh avlod tarbiyasidagi o'rni xususida atroflicha fikr yuritdilar. Shuningdek, mazkur ko'rgazma tasviriy san'at va adabiyot uyg'unligini ifoda etuvchi o'ziga xos ijodiy ko'prik ekani alohida ta'kidlandi.



Tadbir davomida Muhammad Yusuf tavalludining 72 yilligiga bag'ishlab institutimiz talabalari o'rtasida o'tkazilgan ijodiy ishlar tanlovi g'oliblarini taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi. Shuningdek, taqdirlash marosimi doirasida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori Nodirbek Sayfullayev tomonidan ikki institutning bir qator xodim va talabalari "Muhammad Yusuf" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

Tadbir yakunida institutimiz rektori Omonulla Salixov tomonidan mazkur ko'rgazma va adabiy-ma'rifiy kechani tashkil etishdagi hamkorligi uchun bir qator tashkilot va hamkorlarga tashakkurnomalar topshirildi.

Mazkur tadbir yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini boyitish, ularni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash hamda adabiyot va san'at uyg'unligini mustahkamlashga xizmat qildi.



Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti tomonidan O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf tavalludining 72 yilligiga bag'ishlangan sahnalashtirilgan konsert dasturi o'tkazildi!

Konsert davomida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti professor-o'qituvchilari, institutda faoliyat olib borayotgan taniqli san'atkorlar va talabayoishlar tomonidan Muhammad Yusuf ijodiga bag'ishlangan she'rlar, badiiy va musiqiy chiqishlar hamda sahna ko'rinishlari namoyish etildi.



Konsert davomida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti professor-o'qituvchilari, institutda faoliyat olib borayotgan taniqli san'atkorlar va talabayoishlar tomonidan Muhammad Yusuf ijodiga bag'ishlangan she'rlar, badiiy va musiqiy chiqishlar hamda sahna ko'rinishlari namoyish etildi.

Mazkur adabiy-ma'rifiy kecha yoshlarning badiiy-estetik dunyoqarashini boyitish, ularni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash hamda ijodiy salohiyatini namoyon etishda muhim ahamiyat kasb etdi.

## Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutida

### “Karyera kuni”



Institutimizda talaba-yoshlarning bandligini ta'minlash, ularni o'z mutaxassisligi bo'yicha ishga yo'naltirish, amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish hamda ish beruvchilar bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish maqsadida, bitiruvchi talabalar va yosh mutaxassislar uchun “Karyera kuni” tashkil etildi.

Tadbir davomida institut hududida talabalarning ijodiy ishlari ko'rgazmalari tashkil etilib, tasviriy va amaliy san'at, dizayn, arxitektura va boshqa yo'nalishlardagi ijodiy loyihalar namoyish etildi.

Shuningdek, institut hovlisida ochiq osmon ostida mahorat darslari va master-

klasslar o'tkazilib, tashrif buyurgan mehmonlar talabalarning ijodiy jarayonlari bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Tadbir jarayonlari institutning iqtidorli talabalari hamda yosh san'atkorlari tomonidan tayyorlangan musiqiy va ijodiy chiqishlar bilan yanada ko'tarinki ruhda davom etdi.

“Karyera kuni” doirasida bitiruvchi talabalar ishtirokida “Rahbar va yoshlar” uchrashuvi tashkil etildi!

Institutimiz Anjumanlar zalida o'tkazilgan tadbirda O'zbekiston Badiiy akademiyasi Bosh ilmiy kotibi Feruza Abidjanova, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Milliy antropologiya markazi ilmiy tadqiqot instituti direktori Farhod Maqsudov, “Akademnashr” nashriyoti kreativ direktori Baxriddin Bozorov, “Ali Uniforma Tekstil” MCHJ vakillari, institutimiz rahbariyati hamda talaba-yoshlar ishtirok etdi.

Tadbirni institutimiz rektori Omonulla Salixov ochib berdi. Shundan so'ng O'zbekiston Badiiy akademiyasi Bosh ilmiy kotibi Feruza Abidjanova hamda hamkor tashkilotlar vakillari so'zga chiqib, bugungi kunda yosh mutaxassislarni qo'llab-quvvatlash, ularning bandligini ta'minlash, kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish va mehnat bozoriga muvaffaqiyatli integratsiya qilish masalalari muhim ahamiyat kasb etayotganini alohida ta'kidladilar.

Shuningdek, uchrashuv davomida talabalar va bitiruvchilar uchun seminarlar, workshoplar hamda ish beruvchilar bilan ochiq muloqotlar tashkil etildi.

Mazkur uchrashuvlar yosh mutaxassislarning kasbiy faoliyatga tayyorgarligini oshirish hamda ta'lim va amaliyot uyg'unligini mustahkamlashga xizmat qildi.

Institut Anjumanlar zalida o'tkazilgan tadbir davomida O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Antropologiya” ilmiy-tadqiqot instituti, “Akademnashr” nashriyoti hamda “Ali Uniforma Tekstil” MCHJ faoliyati yuzasidan taqdimotlar o'tkazildi.

Shuningdek, institutimiz hamda mazkur tashkilotlar o'rtasida o'zaro hamkorlik memorandumlari imzolandi. Memorandumlar doirasida talabalar amaliyoti, stajirovka dasturlarini yo'lga qo'yish, yosh mutaxassislarni qo'llab-quvvatlash hamda ijodiy va ilmiy loyihalarni amalga oshirish bo'yicha kelishuvlarga erishildi.

Tadbir davomida hamkor tashkilotlar vakillari tomonidan bugungi mehnat bozoridagi talabalar, zamonaviy kasblar hamda yosh mutaxassislar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar haqida ma'lumotlar berildi.

Mazkur hamkorliklar institut bitiruvchilarining bandligini ta'minlash hamda ularning kasbiy faoliyatga muvaffaqiyatli kirib borishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadbir doirasida institutning iqtidorli talabalari tomonidan startup va ijodiy loyihalar taqdimotlari tashkil etildi. Taqdim davomida institutimiz rahbariyati tadbirga tashrif buyurgan tadbirkorlar Art restoranlar “Caravan group” holding asoschisi va rahbari Musin Timur Damirovich, Avtopraktat biznesi bilan shug'ullanuvchi “Car 24” brendining asoschisi va rahbari Tadjiyev Shukrullo Sayfullayevich, Eksklyuziv libos dizayni va tikuv fabrikasi “Riveria” brendi asoschisi va rahbari Shukurov Alisher Shuxratovich, shuningdek, Pavel Benkov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan rassomlik maktabi direktori Xakimov Umedjan Baxadirovich va boshqa hamkor tashkilotlar vakillari bilan birgalikda loyihalar bilan yaqindan tanishib, ularni amaliyotga joriy etish hamda kelgusidagi hamkorlik masalalari yuzasidan fikr almashdilar.

Shuningdek, tashrif buyurgan mehmonlarga institut Ko'rgazmalar zalida O'zbekiston Badiiy ijodkorlar uyushmasi “Oltin medali” sohibi, institutimizning Tasviriy san'at fakulteti “Mahobatli rangtasvir” kafedrasida dotsenti Umar Rajabovning “Ijod yo'li” nomli shaxsiy ko'rgazmasi namoyish etildi.

Mazkur taqdimot va ko'rgazmalar talabalarning ijodiy tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash hamda ularning innovatsion g'oyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Kun davomida o'tkazilgan tadbir doirasida muzeylar, ixtisoslashtirilgan madaniyat va san'at maktablari, bolalar musiqa va san'at maktablari, “Barkamol avlod” bolalar markazlari, shuningdek, dizayn, arxitektura, fotografiya va boshqa yo'nalishlarda faoliyat yuritayotgan 100 ga yaqin tashkilot va muassasalar ishtirok etdi.

Tadbir davomida talabalar amaliyoti va stajirovkasini yo'lga qo'yish bo'yicha qator hamkorlik shartnomalari imzolandi. Shuningdek, institutimizning 100 nafardan ortiq talabalari bilan uch tomonlama shartnomalar tuzilib, ularning kelgusidagi bandligini ta'minlash yuzasidan amaliy kelishuvlarga erishildi.

Shu bilan birga, ko'plab talabalar tashrif buyurgan tashkilot va korxonalarda stajirovka o'tash istagini bildirib, ish beruvchilar bilan dastlabki kelishuvlarga erishdilar.

“Karyera kuni” yosh mutaxassislarni qo'llab-quvvatlash, ularning kasbiy salohiyatini rivojlantirish hamda ta'lim va amaliyot integratsiyasini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etdi.

## Andijon viloyatida “Rassomlar festivali”

Andijon viloyatining Bobur shahridagi “Ziyolilar bog‘i”da davlat rahbari Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan tashkil etilgan ilk “Rassomlar festivali”ning tantanali ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi.

Mazkur nufuzli tadbirda O‘zbekiston Badiiy akademiyasi hamda Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti rahbariyati, O‘zbekiston Badiiy ijodkorlar uyushmasi a‘zolari, professor-o‘qituvchilar, yosh ijodkorlar va soha mutaxassislari ishtirok etib, tasviriy va amaliy san‘atni rivojlantirish, milliy madaniy merosni asrab-avaylash hamda xalqaro hamkorlikni kengaytirish masalalari yuzasidan fikr almashildi.

E‘tiborlisi, mazkur festivalda institutimizda ijodiy faoliyat olib borayotgan 21 nafar iste‘dodli rassomlar ham qatnashdi. Bu esa yosh ijodkorlarning o‘z iste‘dodini namoyon etishi, ijodiy tajriba almashishi hamda milliy san‘at an‘analarini keng targ‘ib etish uchun muhim imkoniyat yaratdi.

Tadbir davomida turkiy xalqlar madaniyati, milliy san‘at an‘analari, yosh ijodkorlarni qo‘llab-quvvatlash hamda xalqaro madaniy aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan masalalar keng muhokama qilindi. Festival doirasida ijodiy uchrashuvlar, ko‘rgazmalar, mahorat darslari va madaniy tadbirlar ham tashkil etilib, ishtirokchilarga o‘zaro tajriba almashish imkoniyati yaratildi.

Festival doirasida “Turkiy dunyo san‘ati: tarixiy-madaniy meros va zamonaviylik” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya bo‘lib o‘tdi! Mazkur anjuman O‘zbekiston Badiiy akademiyasi hamda Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti — TURKSOY hamkorligida tashkil etildi. Unda TURKSOY Bosh kotibi Sulton Raev, O‘zbekiston Badiiy akademiyasi akademigi, San‘atshunoslik fanlari doktori, professor Kamola Akilova, Andijon davlat universiteti rektori Baxtiyor Akbaraliyev, shuningdek, Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti rahbariyati, professor-o‘qituvchilari, san‘atshunos olimlar, mahalliy va xalqaro ma‘ruzachilar ishtirok etishdi.

Ma‘lumot o‘rnida, konferensiya institutimizning Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori Dilafro‘z Qurbonova koordinatorligida tashkil etilib, unda turkiy xalqlar san‘atining tarixiy ildizlari, madaniy merosni asrash va targ‘ib qilish, zamonaviy san‘at jarayonlarida milliy qadriyatlarning o‘rni kabi dolzarb mavzularda ma‘ruzalar tinglandi hamda ilmiy-madaniy fikr almashuvlar olib borildi.

Shuningdek, anjumanda institutimiz professor-o‘qituvchilari ham faol ishtirok etib, turkiy dunyo san‘ati, tasviriy va amaliy san‘at yo‘nalishlaridagi ilmiy tadqiqotlar hamda zamonaviy badiiy ta‘lim masalalari yuzasidan ma‘ruzalar bilan qatnashdilar. Tadbir doirasida turkiy xalqlar o‘rtasidagi madaniy aloqalarni yanada mustahkamlash, yosh ijodkorlarni qo‘llab-quvvatlash, xalqaro ilmiy va ijodiy hamkorlikni kengaytirish masalalariga alohida e‘tibor qaratildi.

Mazkur xalqaro konferensiya va festival turkiy dunyo xalqlari san‘ati va madaniy merosini keng targ‘ib qilish, ilmiy hamkorlikni rivojlantirish hamda san‘at sohasidagi zamonaviy yondashuvlarni ommalashtirishga xizmat qiladi.



## Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti rahbariyati Xitoy Xalq Respublikasida xizmat safarida



Xizmat safari doirasida dastlab institutimiz rektori Omonulla Salixov hamda Tasviriy san‘at fakulteti dekani Shixnazar Jumaniyazovlar ikki tomonlama hamkorlik aloqalarini yangi bosqichga olib chiqish, akademik va ijodiy tajriba almashinuvini kengaytirish, shuningdek, san‘at va dizayn ta‘limi sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish maqsadida, Xitoy Xalq Respublikasining Sindao Maktabgacha ta‘lim pedagogika oliy kollejiga tashrif buyurdi.

Tashrif doirasida ikki tomon rahbariyati o‘rtasida bo‘lib o‘tgan rasmiy uchrashuvda professor-o‘qituvchilar va talabalar almashinuvi, zargarlik va san‘at yo‘nalishlarida qo‘shma kurslar tashkil etish, ijodiy loyihalar hamda ko‘rgazmalarni amalga oshirish, shuningdek, madaniy almashinuv dasturlarini yo‘lga qo‘yish masalalari muhokama qilindi. Uchrashuvda institutimiz rektori Omonulla Salixov tomonidan professor-o‘qituvchilar almashinuvi, qo‘shma ijodiy loyihalar va ko‘rgazmalarni tashkil etish bo‘yicha amaliy takliflar ilgari surilib, ularni amalga oshirish bo‘yicha kelishuvga erishildi.

Uchrashuvdan so‘ng vakillarimiz mazkur ta‘lim muassasa rektori Fu Rongyun hamrohligida Zargarlik fakulteti laboratoriyalari bilan tanishib, emal texnikasi hamda sun‘iy intellekt asosidagi zargarlik dizayni jarayonlarini kuzatdi. Shu bilan birga, zarbli cholg‘ular laboratoriyasi, madaniyat markazi, sport majmuasi, sun‘iy intellekt va til ta‘limi instituti hamda san‘at fakulteti faoliyati bilan yaqindan tanishildi.

Shuningdek, xizmat safari doirasida institutimiz rahbariyati Shanxay hamkorlik tashkilotining “Marvarid” xalqaro ko‘rgazma markaziga tashrif buyurib, unda tashkil etilgan O‘zbekiston, Rossiya va Hindiston pavilonlari faoliyati bilan tanishdi.



Mazkur xizmat safari institutimizning xalqaro hamkorlik aloqalarini yanada mustahkamlash, san'at va dizayn ta'limida ilg'or tajribalarni joriy etish hamda xalqaro darajadagi raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Xitoy Xalq Respublikasida xizmat safarida bo'lgan institutimiz rahbariyati Xubey Tasviriy san'at institutiga (Hubei Institute of Fine Arts) tashrif buyurib, tashrifi doirasida ikki tomon rahbariyati ishtirokida o'zaro hamkorlik masalalariga bag'ishlangan uchrashuv o'tkazildi.

Uchrashuv davomida badiiy ta'lim sohasida hamkorlikni rivojlantirish, professor-o'qituvchilar va talabalar almashinuvi, qo'shma ijodiy loyihalar va ko'rgazmalar tashkil etish, ilmiy-amaliy

hamkorlikni kengaytirish hamda tasviriy san'at, sanoat dizayni, moda va san'at, rangtasvir va vizual san'at yo'nalishlarida istiqbolli hamkorlik masalalari muhokama qilindi.

Shu bilan birga, muloqot davomida zamonaviy ta'lim yondashuvlarini amaliyotga tadbiiq etish, innovatsion texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish, qo'shma ta'lim dasturlari va ijodiy loyihalarni yo'lga qo'yish, tajriba almashish hamda talaba-yoshlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan takliflar yuzasidan fikr almashildi.

Shuningdek, tashrif doirasida institutimiz rahbariyati mazkur institutning Hualin kampusi galereyasida tashkil etilgan institut bitiruvchilarining diplom loyihalari ko'rgazmasi hamda Jianglunda kampusida joylashgan Sanoat dizayni, Moda va san'at, Rangtasvir va Vizual san'at yo'nalishlari faoliyati, ulardagi ta'lim jarayonlari, ijodiy ustaxonalari va zamonaviy infratuzilma imkoniyatlari bilan yaqindan tanishishdi.

Xitoy Xalq Respublikasida xizmat safarida bo'lib turgan institutimiz rahbariyati bugun Si'an Tasviriy san'at akademiyasiga (Xi'an Academy of Fine Arts) tashrif buyurib, akademiya kampusi, o'quv va ijodiy jarayonlari, amaliy ustaxonalari, ta'lim infratuzilmasi hamda talabalar uchun yaratilgan sharoitlar bilan yaqindan tanishdi. Xususan, tasviriy va amaliy san'at hamda dizayn yo'nalishlari bo'yicha auditoriyalar, ijodiy ustaxonalar hamda amaliy mashg'ulotlarning tashkil etilishi o'rganildi.

Mazkur akademiya tashrif doirasida ikki tomon rahbariyati ishtirokida o'zaro hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan uchrashuv o'tkazilib, uchrashuv davomida badiiy ta'lim, tasviriy va amaliy san'at hamda dizayn yo'nalishlarida ilmiy-amaliy hamkorlikni kengaytirish, professor-o'qituvchilar va talabalar almashinuvi yo'lga qo'yish, qo'shma ijodiy loyihalar va ko'rgazmalar tashkil etish, akademik mobillik dasturlarini rivojlantirish, zamonaviy ta'lim yondashuvlari hamda innovatsion texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish masalalari muhokama qilindi. Shuningdek, ikki oliy ta'lim muassasasi o'rtasida istiqbolli hamkorlik yo'nalishlari yuzasidan fikr almashilib, o'zaro manfaatli tashabbuslar ilgari surildi.

Shuningdek, uchrashuv yakunida Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti hamda Xi'an Academy of Fine Arts o'rtasida ta'lim, ilm-fan va ijodiy hamkorlikni yanada rivojlantirishga qaratilgan o'zaro hamkorlik memorandumini imzolandi.

Tasviriy va amaliy san'at yo'nalishida dunyoning yetakchi mamlakatlaridan biri hisoblangan Xitoy Xalq Respublikasi bilan hamkorlik aloqalarini yanada rivojlantirish, ta'lim va ijodiy faoliyatga oid ilg'or tajribalarni o'rganish maqsadida amalga oshirilgan xizmat safari institutimizning xalqaro hamkorlik salohiyatini kengaytirish, mavjud aloqalarni yanada mustahkamlash hamda istiqbolli qo'shma tashabbuslarni amalga oshirish yo'lidagi muhim qadamlardan biri bo'ldi.

## Muzeydan kelajak sari

O'zbekiston madaniy hayotida muzeylar o'ziga xos ilmiy-ma'rifiy, ijtimoiy-madaniy ahamiyat kasb etuvchi maskan hisoblanib, ularni san'atshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Ma'lumki, muzeylar ularning mavzu mohiyati, ulardagi eksponatlar xususiyatdan kelib chiqib, tarixiy-etnografik, arxeologik, san'at va adabiyot hamda uy-muzeylari kabi turlarga ega. XX asrning 60-80 yillar o'zbek xalqi madaniy hayotida fan-texnika, adabiyot va san'at, tarixiy voqea va hodisalar unda ishtirok etuvchi shaxslar haqidagi uy-muzeylari shakllanishi kuzatiladi. O'zbek xalqi madaniyati va san'ati yo'lida jonini fido etgan, o'zining betakror iste'dodi bilan el-yurt orasida hurmat qozongan, yosh avlodlar xotirasida o'tmish ota-bobolarini xizmatlarini doimiy ravishda ko'rsatib turuvchi uy-muzeylar Toshkent shahrining turli hududlarida ham tashkil qilingan.

Toshkent shahrining eng gavjum va san'at maskanlari joylashgan mavzeda o'zbek musiqa va qo'shiqchilik san'ati yo'lida boy meros qoldirgan, ustoz-san'atkor Muxtor Ashrafiy hayoti va ijodini aks ettiruvchi ana

shunday uy-muzey mavjud. Ushbu uy-muzeyning asosiy mohiyati o'sib kelayotgan yosh avlodlar qalbida o'tmish san'atkorlarimizning boy va betakror ijodiy izlanishlarini, ularning san'at sohasidagi olib borgan ishlarini bugungi san'at ixlosmandlariga ibratli namuna sifatida namoyish etishdan iborat. Muxtor Ashrafiy nomidagi uy-muzeyi mashhur kompozitor biografiyasi, san'at yo'lida olib borigan izlanishlari, erishgan yutuqlari va ijtimoiy shaxs sifatidagi hayotini tasvirlovchi oltita ko'rgazma zali hamda kamer musiqasi ijrosi uchun mo'ljallangan kichkina zalidan iborat.



Muxtor Ashrafiyning o'zbek bastakorlik va kompozitorlik faoliyat yo'lini

tadrijiy va xronologik yorituvchi turli eksponatlar bu makonga kelgan san'at ixlosmandlariga ushbu insonning mashaqqatli hayot yo'li hamda o'zbek musiqa qo'shiqchilik san'atidagi xalqimiz uchun nisbatan yangilik hisoblangan opera janrini yuksak san'at darajasiga ko'tarilishi yo'lida olib borgan xizmatlarini namoyish etadi. Muxtor Ashrafiy nomidagi uy-muzeyi eksponatlari orasida tashrif buyuruvchilarning e'tiborini o'ziga qaratgan san'at asboblardan tanbur bilan dutor hisoblanib, mashhur san'atkor Yevropa madaniy hayotida ommaviy janr hisoblangan operaga milliy o'zbek musiqachilik an'analarini qay tarzda transformasiyalashtirilganligini guvohi bo'ladi.

Bugungi kunda ushbu uy-muzeyda ilmiy tadqiqot ishlari muzeyning yillik rejasiga ko'ra olib boriladi. Shahar kutubxonalarining materiallari hamda M.Ashrafiy va uning zamondoshlari E.Tomatov, I.Galushenkolarining shaxsiy arxivlari asosida "Muxtor Ashrafiyning simfonik ijodi", "O'zbek kompozitorlarining professional musiqasi va o'zbek maqomlari", "Muxtor Ashrafiy va A.Xachaturyan" kabi leksiya mavzulari qayta ishlash ustida ish olib borilgan.

2026-yilda esa muzey hodimlari tomonidan tuzilgan “Muxtor Ashrafiy” nomli fotoalbom nashr etildi. Ushbu albomda avval boshqa kitob, gazeta, jurnallarda nashr etilmagan fotosuratlardan foydalanishga harakat qilindi. Albomda Ashrafiyning hayoti va ijodi bilan bogʻliq bir qancha yangiliklarni kashf etish mumkin.



O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 15-oktabrdagi 649-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi to‘g‘risida”gi nizomga asosan, 2025-yil iyul-sentabr oylarida Muxtor Ashrafiy uy-muzeyida muzey ashyolari va kolleksiyalari xatlovdan o‘tkazildi. Ushbu jarayonga muvofiq xatlov komissiyasida O‘zbekiston amaliy san‘at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyi direktori, xatlov komissiyasi rahbari I.Yusupov; Badiiy ekspertiza boshqarmasi yetakchi mutaxassisi, xatlov komissiyasi rahbar o‘rinbosari D.Ismoilov; Muzeylar faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi bosh mutaxassisi, xatlov komissiyasi a‘zosi B.Qaror; Muzeylar faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi bosh mutaxassisi, xatlov komissiyasi a‘zosi D.Mirxusanova, Muxtor Ashrafiy uy-muzeyi direktori, xatlov komissiyasi a‘zosi N.Gunova; Abdulla Qodiriy memorial muzeyi direktori, xatlov komissiyasi a‘zosi M.Nazarova; O‘zbekiston davlat san‘at

muzeyi bo‘limi boshlig‘i, xatlov komissiyasi a‘zosi O.Udovenko; Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi ilmiy xodimi, xatlov komissiyasi a‘zosi J.Axmadjonov; Badiiy ekspertiza boshqarmasi yetakchi mutaxassisi, xatlov komissiyasi a‘zosi G.Akbarova; Badiiy ekspertiza boshqarmasi yetakchi mutaxassisi, xatlov komissiyasi a‘zosi D.Umarbekova va Muxtor Ashrafiy uy-muzeyi muzey kuzatuvchisi Fotima Ismoilovalar ishtirok etishdi.

Xatlov xulosasiga ko‘ra:

- Kirim kitobi kitobi bo‘yicha 18 947 dona ashyo ro‘yxatga olinganligi qayd etildi;
- 158 dona muzey ashyosiga takroran Kirim kitobi raqamlari berilganligi aniqlandi;
- 10 dona muzey ashyosining Kirim kitobidagi tavsiflari va amaldagi holatlari bo‘yicha nomutanosibliklar qayd etildi;
- 7 dona ashyo ta‘mir talabligi aniqlandi;
- 5 dona ashyo Kirim kitobiga ro‘yxatga olinmaganligi qayd etildi;
- Kirim kitoblarida jami 905 ta o‘tkazib yuborilgan hisob raqamlari qayd etildi.

Bundan tashqari, doimiy saqlanishiga mo‘ljallangan asosiy fond predmetlariga dalolatnoma yozilib, yangi kelib tushuvchi eksponatlar kirim kitobiga kiritiladi. Ilmiy bayon kartochkalari hozirda mavjud.



Muzeyda ilmiy-oqartuv ishlari ham faol olib boriladi. Maktab, gimnaziya, milliy konservatoriya, musiqa kolleji, Uspenskiy va Glier nomidagi musiqa maktablari bilan bolalarni muzeyga kelib tanishishi bo‘yicha shartnomalar tuzilib doimiy hamkorlikda bo‘linadi. Tashkilotlar bilan 32 ta hamkorlik memorandumlar tuzilgan (jumladan, Alisher Navoiy nomidagi Davlat akademik katta teatri, O‘zbekiston davlat konservatoriyasi, Toshkent shahar bolalar musiqa va san‘at maktablari hamda boshqa muassasalar bilan). Bundan tashqari, Ashrafiy muzeyining konsert zalida konsert, badiiy uchrashuv va kechalar muntazam o‘tkazib kelinadi. Tadbirlarga milliy-madaniy markaz hamda elchixonalar vakillari jalb etiladi. Bugungi kunda muzeyda tinizmsiz tadbirlar o‘tkazilishi natijasida doimiy tinglovchilar auditoriyasi shakllangan. Muzeyda tashkillashtiriladigan barcha tadbirlar ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritib boriladi. Shu jumladan, barcha tadbirlar va ekskursiyalar bepul o‘tkaziladi.

Ilmiy ekspozitsiya va ko‘rgazmaviy faoliyat ham faol yo‘lga qo‘yilgan. Muzeyda tashkil etiladigan sanalarga bag‘ishlangan ko‘rgazmalar qatorida muzeydan tashqarida ham ko‘chma ko‘rgazmalar tashkil etilib turiladi. Bu esa muzeyning targ‘ibot-tashviqot borasida amalga oshirgan ishlaridan dalolatdir.

*Ismoilova Fotima Izzat qizi  
MRDI 1-kurs magistranti*

Muassis:	Bosh muharrir:	Tahrir hay‘ati:	Nashrga tayyorlovchi:	Dizayner va sahifalovchi:
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti	Omonulla Salixov	Dilafro‘z Qurbonova (bosh muharrir o‘rinbosari), Rustam Xudoyberganov, Ortiqboy Qozoqov, Umida Utanova, Gulnora Azizova	Sh.Ergasheva	Sh.Ergasheva

Tahririyat manzili: 100015 O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahar, Mirobod tumani, Mironshoh ko‘chasi, 123-uy. Telefon: 71 255-98-39. faks: 71 255-18-33. Sayt: [www.mrdi.uz](http://www.mrdi.uz), e-mail: [mrdi\\_info@umail.uz](mailto:mrdi_info@umail.uz). Gazeta institutning tahririy va nashriyot bo‘limida tayyorlandi. O‘lchami – A3, hajmi 2 bosma taboq. Gazeta har oyning oxirgi haftasida Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti rasmiy saytida elektron shaklda e‘lon qilinib boriladi.

Gazeta O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 11-fevralda 1050-raqami bilan ro‘yxatga olingan.

